

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA ONA ALLASINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Yabbarbergenova Shadigul Abdullayevna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 1-sonli kasib-hunar maktabi o'zbek tili  
fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida yetakchi o'rin egallaydigan, qo'shiqlaridan biri ona allasi haqida so'z yuritiladi. Ona allasi xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi yoki madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimiz hisoblanadi. Alla so'zining etimologiyasi, qo'llanilishi va bolaning tarbiyasida ona allasining o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ona allasi, alla aytish san'ati, mehr-muhabbat, ijobiy istaklar, yaxshi niyatlar, urf-odatlar, madaniy meros, farzand tarbiyasi.

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq xalqi o'zining boy adabiy merosini avlod-dan-avlodga yetkazib borgan. Ulardan marosim qo'shiqlari, xalq ertaklari, maqollari, xalq dostonlari bunga misol bola oladi. Bizgacha yetib kelgan xalq og'zaki ijodiyotida xalqning ezgu-niyatlari, ijobiy istak va yaxshi niyatlari asosiy o'rinni egallagan. Xalq og'zaki ijodining qaysi turiga nazar solsakda, bunda insoniylik fazilatlar bilan xalqning ezgu-niyatlari va madaniy meroslari haqida gap boradi. Marosim qo'shiqlarida insonlarning bir-biriga mehr bilan aytilgan yaxshi niyatlari bildiriladi.

Xalq og'zaki ijodidan ko'zga tashlanadigan holatlardan biri ona allasi hisoblanadi. "Alla" - bu beshik qo'shig'i bo'lib, ona suti bilan birga bolaning ruhiyatiga singib boradi. Onaning chin yurak to'ridan aytilgan allasida chuqur mazmunli so'zlar yordamida uning o'z bolasiga bo'lgan mehri, uning kelajagiga, umr yo'liga yaxshi niyatlar bilan ijobiy istaklarida ko'rinadi. Alla go'dakni uxlatish paytida kuylab aytiladigan misralardan iborat bo'lib, inson uchun eng bebaho tuyg'ulardir.

Sh. Rahmatullayev "alla" so'zini qadimgi turkiy tilida "tinchlanish" ma'nosini bilib olishini va kuylanadigan misralar oxirida kelganida bu so'z undovlik xususiyatini saqlaydi shunday misralarning nomi sifatida esa otga teng bo'ladi, -deb aytib o'tgan [7:28].

*Alla aytay jonim bolam,*

*Quloq solgin, alla*

*Shirin allam tinglab asta*

*Uxlab qolgin alla.*

*Ko'zlaringga tomgan suvga*

*Hayron bo'lma, alla-ya*

*Baxtinga sen katta bo'lgin*

*Xazon bo'lma alla.*

O'zbek xalqida chaqaloq orom olib uxlab bo'lganidan so'ng uni beshikdan olayotganda ham yaxshi niyatlar bilan allohga shukronalik keltirib, har xil sharpalar go'dakning uyqusini buza olmaganligini ta'kidlab o'tgan.

*Taqa- tuqi gavora bo'lsin*

*Dushmani ovora bo'lsin*

*Uyqusi beshikda qolsin*

*Dushmani eshikda qolsin [4:11].*

Qoraqalpoq xalq folklorida ham "Alla"- beshik qo'shig'i bo'lib, nozik tuyg'ularga to'la qo'shiq. Alla aytish bilan ona o'z bolasiga mehrini uning kelajagiga yaxshi niyatlarga to'la ugit- nasihatlarini, ijobiy istaklarini chiroyli tuyg'ulari orqali bildirgan [1:104].

"Ha'yyiw" - so'zi asos so'z bo'lib, bolalarni uxlatish uchun aytiladigan qo'shiq ma'nosida kelganda ot so'z turkumi, "ha'yyiwlew"-so'zi fe'l so'z turkumi bo'lib, "tinichlanish", "uxlatish" ma'nosida keladi. [6:471]

*Ha'yyiw-ha'yyiw appag'im,*

*Gu'l ishinde japirag'im,*

*Qozim menin`gu'l bolg`ay,*

*Jynag`anin`toy bolg`ay*

*Toyim-toyg`a ulasqay,*

*Da`wlet kelip ornasqay ,*

*Ha'yyiw, ha'yyiw haydasi-ay,*

*Qashan tiyer paydasi-ay,*

*Oqip adam bolg`an son`*

*Sonda tiyer paydasi-ay.*

Beshik qo'shig'da bolaning katta bo'lishi, oila qurishi, to'y o'tkazishi, o'g'il yoki qiz bolaning yaxshi inson bo'lib o'sishi, ona orzusi bilan ifodalanadi. Bu haqida qoraqalpoq xalqi ilm sohibi Na'jim Da'wqaraev o'zining fikrlarini bildirib o'tgan: "Avvalo onalar bolasining kelajagini rejalashtirgan. Bolaning katta bo'lganida qanday inson bo'lishini, uning uchun nima qilish kerak ekanligini, bolaning katta bo'lganida oldida turgan vazifalarini aytib, farzandni yoshligidan shu vazifalarga tarbiyalashga harakat qilishgan. Allada aytilgan qo'shiqning mazmunida shu maqsadga aytilgan" [5:87].

Ona bolasiga alla aytish orqali uni ovitish, uxlatish bilan birga uning badan tarbiyasi, musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Allaning turlari juda ko'p, chunki har bir ona o'z bolasi uchun o'z allasini yaratadi.

*Qarag`im menin`jasında,*

*Jasıldan qalpaq basında,*

*A`shekeyli aq otaw,*

*Ag`asının`qasında [2:17].*

Ona allasida bola dunyoni, o'zi yashayotgan muhitini yoqimli musiqa hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega so'zlar bilan taniy boshlaydi.

Beshik qoshig'ı barcha xalqlarda uchraydi. O'zbek xalqida "alla", qoraqalpoq xalqida "ha`yyiw" deb qo'llaniladi va o'z mazmunini saqlab qoladi. Qoraqalpoq beshik qo'shig'ida bu alla aytish, tebratish yoki bolani oldiga olib o'tirib bir qolipda tebratish tuchunchasini beradi. "Ha`yyiw-ha`yyiw" qoraqalpoq xalqida, o'zbek xalqida "Alla-alla" so'zlari beshik qo'shig'ida asosiy o'rinni egallaydi. Alla onaning o'z bolasiga mehri bilan birga, vataniga sodiq farzand qilib tarbiyalashda ahamiyati katta [3:59].

Xulosa qilib aytganda, alla xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi yoki madaniy merosimiz va ma'naviy boyligimiz, xalqimizning ijobiy istaklarini jamlagan katta xazinasidir. Uni asrab-avaylash, avlodlarga yetkazib berish, bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmetov S, Bahadırova S. Folklorliq terminlerdin` qısqasha so`zligi. No`kis. 1992.150 bet.
2. Ayımbetov Q, Xalıq danalıg`ı. No`kis «Qaraqalqaqstan » baspası 1988.490 bet.
3. Jarımbetov Q, Allambergenov I, Nzammatdinov J. Qaraqalpaq folklorı. Tashkent. 2018. 255 bet.
4. Jumaboyev M, O'zbek bolalar adabiyoti.Toshkent .2002.
5. Maqsetov Q, Qaraqalpaq xalqinin` ko`rkem awiz eki do`retpeleri No`kis. Bilim. 1996. 339 bet.
6. Qaraqalpaq tili tu`sindirime so`zligi IV tom 1992.633 bet.
7. Rahmatullayev Sh, O'zbek tili etimologik lug'ati, I jild.Toshkent. 2000.599 bet.